

YOSH TADBIRKORLAR QO'LLAB-QUVVATLANMOQDA



Muhtaram Prezidentimizning O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda avvalo mard va matonatli, ko'pni ko'rgan xalqimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi va saviyasi tobora yuksalib borayotganida ko'rishimizni va eng muhimi bugungi kunda hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan, Vatanimizning ertangi kuni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan navqiron yoshlarimizni biz o'zimizning ishonchimiz, tayanchimiz va suyanchimiz deb bilganimizdadir deb ta'kidlagani mamlakatimiz yoshlariga yanada katta kuch va g'ayrat bag'ishlamoqda.

«Asaka» bank tomonidan «tadbirkor bo'lay, yurtimizni yanada rivojlanishiga, xalqimiz xayotini yanada farovon bo'lishida o'z hissamni qo'shay» degan yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning biznes g'oyalarini hayotga tadbqiq etish uchun moliyaviy ko'mak berish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Yurtboshimizning 2010 yil 28 iyuldagi «Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida bank mutaxasislari yoshlarni, shu jumladan ta'lim

muassasalari bitiruvchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ulardagi intilishlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilayotgan bir qator tadbirlarda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, siyosiy partiyalar va boshqa tijorat banklari bilan hamkorlikda an'anaviy tarzda har yili «Yosh tadbirkor-yurtga madadkor», «Mening biznes g'oyam», «Vatanim taraqqiyotiga mening hissam» va boshqa ko'plab o'tkazilib kelinayotgan loyihalarda faol ishtirok etmoqda.

O'tkazilayotgan tadbirlarning samarasi sifatida yosh tadbirkorlar, shuningdek ta'lim muassasalari bitiruvchilarining istiqbolli loyihalari tanlab olinib, bank tomonidan imtiyozli shartlarda moliyalashtirilmoqda. Xususan yosh tadbirkorlar, shu jumladan, ta'lim muassasalari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash, ularga munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish maqsadida o'tgan yil mobaynida ta'lim muassasalari bitiruvchilariga 11,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilgan bo'lsa, joriy yilda ushbu maqsadlarga 15,0 mlrd.so'm miqdorda kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan. Buning natijasida ko'plab yoshlarimizni doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

«Asaka» bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Banklar Assosiyati tomonidan tashkil etilgan va joriy yilning 13-14 aprel kunlari poytaxtimizning «O'zko'rgazmasavdo» markazida o'tkazilgan bank xizmatlari, uskunalari va texnologiyalari IX-yillik «BANKEXPO - 2016» milliy ko'rgamasida o'z faoliyatini boshlagan va faoliyatini rivojlantirish maqsadida bo'lgan yosh tadbirkorlarga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirildi. Jumladan, «Shahzoda-Mo'jiza», «Lyuks Plyus Servis» va «Al-Vair» mas'uliyati cheklangan jamiyatlariga, «Prichuda» oilaviy korxonasi, «Dashtdagi bog'bonlar» fermer ho'jaligi va YaTT Abduvaliev Xosilbek Shuxratbek o'g'liga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirildi.

Jizzax tumanida joylashgan «Shahzoda-Mo'jiza» mas'uliyati cheklangan jamiyatining «Ona va bola sog'lomlashtirish markazini tashkil etish» bo'yicha taqdim etgan loyihasi «Eng yaxshi tadbirkor ayol» nominatsiyasida g'olib chiqqanligi uchun imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat topshirildi. Mazkur loyiha ishga tushishi natijasida qo'shimcha 16 nafar ish o'rinlari tashkil etiladi.

Namangan shahrida faoliyat yuritayotgan «Lyuks Plyus Servis» mas'uliyati cheklangan jamiyatining «Tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish» bo'yicha taqdim etgan loyihasi «Eng ko'p qizlarni ish o'rinlari bilan ta'minlagan biznes loyiha» nominatsiyasida g'olib deb topildi va imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat topshirildi. Mazkur loyiha ishga tushishi natijasida qo'shimcha 50 nafar yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

Toshkent shahar Yakkasaroy tumanida faoliyat yuritayotgan «Al-Vair» mas'uliyati cheklangan jamiyatining «Poligrafiya mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish» loyihasi ham «Eng yaxshi tadbirkor ayol» nominatsiyasida g'olib chiqdi va imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat bilan taqdirlandi. Mazkur loyiha ishga tushishi natijasida qo'shimcha 5 nafarga yaqin ish o'rinlari tashkil etiladi.

Samarqand viloyati Ishtixon tumanida faoliyat yuritayotgan «Dashtdagi bog'bonlar» fermer ho'jaligining uzumchilikni rivojlantirish bo'yicha taqdim etgan loyihasi

«Qishloqdagi eng namunali biznes loyiha» nominatsiyasida g'olib deb topildi va imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat topshirildi. Mazkur loyiha ishga tushishi natijasida qo'shimcha yangi ish o'rinlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Toshkent viloyati Zangiota tumanida faoliyat yuritayotgan «Prichuda» oilaviy korxonasi «Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish» loyihasi «Eng yaxshi oilaviy tadbirkor loyihasi» nominatsiyasida g'olib chiqdi va imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat bilan taqdirlandi. Mazkur loyiha ishga tushishi natijasida qo'shimcha yangi ish o'rinlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Andijon viloyati Shahrixon tumanida faoliyat yuritayotgan YaTT Abduvaliev Xosilbek Shuxratbek o'g'lining go'sht mahsulotlari savdosini tashkil etish bo'yicha loyihasi «Ta'lim muassasasi bitiruvchisining eng namunali biznes loyihasi» nominatsiyasida g'olib deb topildi va imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat topshirildi. Mazkur loyiha ishga tushishi natijasida qo'shimcha yangi ish o'rinlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

— Prezidentimiz tomonidan 2016 yil «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinishi yurtimizdagi barcha onalar, xotin-qizlar singari biz, jizzaxlik ayollarni ham behad quvontirdi—deydi, **«Shahzoda-Mo'jiza» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Maxfirat Haydarova**. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, millat genofondini yaxshilash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilgan yurtda yashayotganimizdan baxtiyormiz. Qolaversa, har qadamda biz, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei, nufuzini oshirishga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni his qilamiz.

Amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida yurtimizda onalar va bolalar salomatlik ko'rsatkichlari yaxshilanib borayapti. Bunda viloyatlarimizda, chekka-chekka qishloqlarimizdagi mahallalar qoshida bolalar, maktab o'quvchilari uchun tashkil etilayotgan sport to'garaklarining o'rni beqiyos, albatta. Kamina ham yaqinda bu kabi xayrli ishlarga hissa qo'shish maqsadida tumanimizda «Ona va bola sog'lomlashtirish markazi»ni tashkil etishga oid biznes-loyiha tuzib, «Asaka» bankiga kredit berishlarini so'rab murojaat qildim. Loyihaga asosan 16 nafar yangi ishchi o'rni yaratilishi ko'zda tutilmoqda. Bu loyiham bank mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqildi va g'olib deb topildi. Poytaxtimizda o'tkazilgan ko'rgazmaga taklif qilishib, loyiham asosida imtiyozli kredit ajratilishini nazarda tutuvchi sertifikat taqdim etishdi. Bundan behad xursandman. Azaldan Jizzaxda bir-biridan go'zal, ko'rkam, baquvvat, sog'lom ayollar ko'p bo'lgan, ishonchim komilki, bank kreditlari hisobiga yaqin kelajakda bizning markazimiz ishga tushsa, bunday ayollar safi ham yana ham kengayadi. Ayollarimiz farzandlari bilan birgalikda ham salomatligini tiklashadi, ham jismoniy va ruhiy orom olishadi, deb o'ylayman.

Fursatdan foydalanib, biz, tadbirkorlarga ishonch bildirib, qulay shartlar asosida imtiyozli kredit ajratishga qaror qilgan «Asaka» bankiga minnatdorchilik bildiram.

— Ma'lumki, mamlakatimiz jahonda paxta tolasini ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birida turadi—deydi, **«Lyuks Plyus Servis» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Ne'mat Fatxiddinov**. —E'tiborlisi, yurtimizda yuksak samarali paxta navlari yetishtiriladi, paxta tozalash sanoati ham to'liq modernizatsiya qilingan. Bunday sifatli va mustahkam tolali gazlamalardan tikilgan eksportbop tayyor kiyimlarni o'zimizda ishlab chiqarish va xalqimizga, qolaversa boshqa xorijiy davlatlarga eksport qilish masalasi dolzarbligini yo'qotmaydi. Shu bois men ham sifatli mato va

gazlamalardan eng so'nggi rusumdagi erkaklar kiyimini ishlab chiqarishni niyat qildim. 50 nafar yangi ishchi o'rni yaratish ko'zda tutilayotgan rejamiz asosida biznes-loyiha ishlab chiqildi va «Asaka» bankiga bu loyihamni taqdim etdim. Ko'p o'tmay bankning malakali va xushmuomila mutaxassislari bizni poytaxtda o'tkazilgan ko'rgazmaga taklif etishdi. Ko'rgazmada bizning loyiha g'olib deb topildi va korxonamizga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikat tantanali ravishda topshirildi. Namanganga qaytib borib, kreditni rasmiylashtirgach ishlab chiqarish faoliyatimiz uchun bank kredit mablag'i hisobiga zamonaviy tikuv dastgohlar sotib olamiz.

Yaqin istiqbolda nafaqat respublikamiz, balki qo'shni davlatlarda biz tikkan kostyum-shimlarni kiyishga, sotib olishga ko'plab talabgorlar topiladi, deb umid qilaman. «Asaka» banki bilan boshlayotgan hamkorligimiz samarali bo'lishiga ishonaman.

— Har qanday ilmli, ziyoli inson borki, tafakkuri, ongini foydali axborot bilan boyitishga, dunyoqarashini kengaytirishga harakat qiladi—deydi, **«Al-Vair» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Irina Sinyukova.** —Buning uchun kitobdan bo'lak ishonchli va sodiq hamroh bo'lmasa kerak. Yurtimizda keyingi yillarda adabiy, ilmiy, ma'rifiy kitob va boshqa turdagi bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish va mutolaa qilishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois nashriyotlar soni ko'payib, sog'lom raqobat yuzaga kelmoqda. Har bir nashriyot mijozlariga yangicha turdagi xizmatlarni taklif etishga intilmoqda. Bizning korxonamiz ham tez kunlarda Toshkent shahrida nashriyot sanoatini rivojlantirishga hissa qo'shmoqchi. Nashriyot mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida zarur xom-ashyolarni sotib olish uchun «Asaka» bankidan imtiyozli kredit olishga qaror qildik. Biznes-loyihamiz bank vakillariga ma'qul kelgan ko'rinadi, ko'rgazmada g'olib deb topilib, imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'ldik. Bundan behad mamnunmiz. Bizga bildirilgan ishonchni oqlashga va'da beramiz. Bank mablag'lari hisobiga poligrafiya mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravar ko'paytirib, yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilganmiz. Bundan keyin ham «Asaka» bank bilan yaqin hamkorlik qilib, yangi istiqbolli loyihalarni ro'yobga chiqarish niyatidamiz.

Ta'kidlash lozimki, mazkur ko'rgazmada «Asaka» bank **«Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini qo'llab-quvvatlovchi eng yaxshi bank»** nominatsiyasida g'olib deb e'tirof etildi.

«Asaka» bank jamoasi joriy yil davomida ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada faollashtirib, yosh tadbirkorlar, shuningdek ta'lim muassasalari bitiruvchilarining istiqbolli loyihalarini moliyalashtirishni maqsad qilgan.